

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14559332>

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA QO‘LLANADIGAN METODLARI

**Yashinova Shahzoda**

Nizomiy nomidagi TDPU

Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti 3-kurs talabasi

**M.A.Hamrayev**

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

E-mail: [m.a.hamrayev@gmail.com](mailto:m.a.hamrayev@gmail.com)

**ANNOTATSIYA.** *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darsida qo‘llanadigan metodlar haqidagi bilimlar yoritib berilgan. Ona tili darslarida ko‘proq interfaol metodlardan foydalanib dars o‘tish borasidagi fikrlar yoritib berilgan.*

**KALIT SO‘ZLAR:** *Metodlar, interfaol metodlar, ifodali o‘qish, ijodiy ishlar, ohang va innotatsiya, o‘qish darajalari.*

**АННОТАЦИЯ.** *В данной статье освещены знания о методах, используемых на уроке родного языка в начальных классах. Освещены мысли об использовании интерактивных методах преподавания на уроках родного языка.*

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** *Методы, интерактивные методы, выразительное чтение, творческие произведения, тон и аннотация, уровни чтения.*

**ANNOTATION.** *In this article, the knowledge about the idioms used in the primary class mother tongue lesson is highlighted. Thoughts on teaching using more interactive methods in mother tongue classes are highlighted.*

**KEY WORDS:** *Methods, interactive methods, expressive reading, creative works, tone and annotation, reading levels.*

*“Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob  
ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy  
harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak...”*  
**Shavkat Mirziyoyev**

O‘qish darslarining samaradorligi ko‘p jihatdan ta’lim metodlarining to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq. Binobarin, fanning o‘zi kabi o‘qitish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo‘ladi. Darslarni qiziq bo‘lishi va bolalar zerikmasliklari uchun ham metodlardan foydalanish kerak bo‘ladi. Bu metodlardan ona tili darslarida qo‘llash ham bolalarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi, ham darsning samaradorligini yanada oshiradi.

**Metod** (yun. "metodos" — bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot) — voqelikni amaliy va nazariy egallash, o‘zlashtirish, o‘rganish, bilish uchun yo‘l yo‘riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

Hozirgi kunda maktablarda izohli o‘qitish metodlaridan keng foydalanib kelinmoqda. Xo‘sh, o‘zi bu metod nima ekanligi bilan tanishib chiqamiz.

**IZOHLI metodi** bu asosan o‘qishga XIX asarning 60-70-yillarida rus pedagogi K.D.Ushinskiy tomonidan kirib kelgan metod hisoblanadi. U o‘qishga o‘quvchilarni „ongli tushunib, o‘ylab o‘qishga “o‘rgatishni izohlaydi va bu metod „IZOHLI O‘QISH” metodi deb nomlanadi. Demak izohli o‘qish metodi deb o‘ylashga, his qilishga, asarni to‘liq idrok qilishga, o‘qilganning mazmunini o‘zlashtirishga olib keladigan o‘qishga aytiladi.

XX asr oxirgi yillariga qadar o‘qitishning metodlari sifatida tushunchalarni bayon qilish metodi, BBB metodi, suhbat metodi, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanib dars o‘tilsa darsning samaradorligini oshirishga yanada yordam beradi. Bu metodlarning har biri bilan ta’nishib chiqamiz.

**BAYON QILISH metodi.** Bu metod orqali o‘quvchilar uchun rasm, video yoki hikoya o‘qib beriladi. Agar rasimga qarab bayon qilishlari kerak bo‘lsa ular rasimga qarab o‘z fikrlarini bayon qilib berishadi. Hikoya o‘qib berilsa ham bolalar hikoyaning mazmunini o‘z mustaqil fikrlariga tayangan holda bayon qilib berishadi. Bu metod ham

o'quvchilarni o'z mustaqil fikrlarini bayon qilish, ham nutq boyliklarini o'stirish va sinfxonada o'zini tuta bilish qobiliyatlarini shakllantiradi.

**BBB metodi.** Bu metod asosan yangi mavzu o'tilganda qo'llanadi. Mavzu o'tilishidan oldin bolalarga mavzuga oid tushunchalari ya'ni biladigan narsalari so'rab olinadi. Keyin yangi mavzu o'tib bolalarga mavzu yuzasidan bilimlar beriladi. Keyingi o'rinda esa bolalardan bilib olgan bilimlari so'raladi. Bu metodni ona tili mavzularida qo'llasa ham dars juda ajoyib tashkil etiladi.

**SUHBAT metodi.** Bu metod boshlang'ich ona tili darslarida ko'p qo'llaniladigan metodlar sirasiga kiradi. Suhbat metodi savol-javob metodi deb ham ataladi. Suhbat metodi o'quvchidan mavzuning xususiyatini o'zida aks ettirgan o'quv materiallarini topishda, Grammatik mavzuni muhim vazifalarini aniqlash, ularni o'xshash va farqli jihatlarini ajratish, umumlashtirishga, xulosa chiqarishga yo'naltirilgan savollar tuzish, ularni o'quvchilarda izchil berib borishni talab qiladi.

**INDUKSIYA metodi.** Induksiya – ma'lum miqdorda yakka holdagi fakt, hodisa va jarayonlarni kuzatish orqali, shu kuzatishlarga tayangan holda ishlab chiqarilgan umumiy xulosa chiqarish. Bu metod orqali o'quvchilar o'qituvchi bergan til dalillarini kuzatadi, tahlil qiladi va shu asosda xulosa va ta'riflar keltirib chiqaradi.

**DEDUKSIYA metodi.** Deduksiya (lotincha: deductio — xulosa chiqarish) — mantiq qoidalariga ko'ra xulosa chiqarish. Dastlab formal mantiqda umumiylikdan xususiylik, ayrimlik tomon muhokama yuritish deduksiya deb atalgan. Deduksiya metodi o'quvchilar tayyor qoidalar-ta'riflar bilan tamjinishadi va ularning mohiyatini til dalillari asosida ochib berishadi. Bu metod orqali samarali savol-topshiriqlarni mazmuni grammatik hodisaning muhim tomonlarga yo'naltirilganliklarini bilib olishadi.

**XULOSA:** Xulosa qilib aytganda bu metodlarning muvaffaqiyati o'quvchining beradigan savol-javoblariga bog'liq bo'ladi. Yo'l-yo'lakay duch kelgan savollar bilan kichik yoshdagi o'quvchining anglash faoliyatini ishga solish kutilgan natijani beradi. Bu metodlardan nafaqat ona tili darslarida balki boshqa fanlarda ham foydalansa bo'ladi. Darslarda qancha ko'p interfaol metodlardan foydalanib dars o'tilsa, darsning shuncha qiziqarli va samarali bo'lishiga imkon yaratib beradi. Ikkibchi tomondan esa bolalarning darsga qiziqishlarini yanada orttiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova. Qosomova, Safo. Matchonov, Xolida.G‘ulomova, Sharofat. Yo‘ldosheva, Sharofjon Sariyev,, Ona tili o‘qitish metodikasi” .:Toshkent 2022. 158-160-betlar.
2. Xalikov A‘zam, Doniyor.Mavlonbekov va boshq. „Ona tili va uni o‘qitish metodikasi”.:TOSHKENT 2022.
3. Yu.Babanskiy Hozirgi zamon umumiy ta‘lim maktabida o‘qitish metodlari.- T.:„O‘qituvchi”,1990.
4. M.Xudoyberdiyeva, M.Muxtorova 3-sinfda ona tili darslari. – T.:„O‘qituvchi”,2005.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki>